

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadillovovich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obidovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI	77
Akmalbek Najimov Umid o'g'li, Dinara Ishmanova	
ПРАКТИКА И АНАЛИЗ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	81
Шамшетьева Гульраушан	



AHOLI DAROMADLARI O'SISHI VA INFLYATSIYA DARAJASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	83
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
KORXONALARDA MAHSULOT SAVDOSIGA OID MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INTELEKTUAL YONDASHUVLARI	86
Baydullayeva Dildora Tuylibayevna, Baydullayev Ruslan Tuylibayevich	
ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	90
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVISHDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI	93
Jalolov Abbasxon Ravshanxon	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	97
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
THE IMPACT OF EXTERNAL DEBT, INVESTMENT ACTIVITY, AND CAPITAL FORMATION PROCESSES ON EXPORT VOLUME AND ECONOMIC GROWTH DYNAMICS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES	102
Tojiqulova Sitora Sobirjon qizi	
HUMAN CAPITAL AND DIGITAL TRANSFORMATION: DRIVERS OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT	108
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich	
YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI SOLIQ SIYOSATINI USTUVOR JIHATLARINI MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA QO'LLASH ORQALI SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	110
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH KONSEPSIYASI	114
Turdibayev Abdulaziz Abduvaxidovich	
O'ZBEKISTONNING 12 YILLIK TA'LIM TIZIMIGA QAYTISH ISLOHOTI	118
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich	
MAMLAKATNING XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAGI MAVQEINI YAXSHILASHDA IQTISODIY MUSTAHKAMLIKNING AHAMIYATI	123
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
XALQARO SAVDODA MARKETING ROLI: EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	125
Qurolov Maqsud Obitovich	
BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI VA ULARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	130
B.Izbosarov, N.Hakimova	
OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGI MASALASINING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	132
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
DYUZDO SPORTIDA MALAKALI SPORTCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA TAKTIK TAYYORGARLIKNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	135
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
SANOATDA QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI OSHIRISH	138
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOSHQARUVI UCHUN SUN'IIY INTELLEKTNING KENGAYTIRILGAN BASHORATLI TAHLILI	142
Esanova Shohida O'tkirovna	
PROSPECTS OF USING CREDIT CARDS IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	146
Mamatova Sevara Ilhom qizi	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI SUG'URTALASH MEKANIZMLARINI YANADA KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI	151
Xalilova Feruza Jamolovna	



УЯЗВИМОСТИ В ПЛАТЕЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	155
Садыков Азиз Миршарапович	
КРИТЕРИИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	160
Жусупова Анжим Тансыкбаевна	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISH: AVTOMOBILSOZLIK SEKTORI BO'YICHA ILMIY YONDASHUV	163
Allabergenov Azamat Joldasbayevich	
SUD-HUQUQ SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING INSON MANFAATLARIGA TA'SIRI	167
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHNING ASOSIY SHAKLLARI.....	170
Valiev Umid Gulamovich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA AGRAR SEKTORNI MODERNIZATSIYA QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	173
G'afurov Zohidjon	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI	177
Karimov Nodirbek	
КЛЮЧЕВЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ	179
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA AUTSORSING XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI TAHLILI	182
Xamidov Anis Choriyevich	
PHYSIOLOGICAL CHANGES IN THE HEART IN ATHLETES OF DIFFERENT SPORTS	186
Yoldasheva Roila Jumaevna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEKANIZMLARI SAMARADORLIGINING EMPIRIK TAHLILI	192
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINING EMPIRIK TAHLILI

Boltayeva Nilufar Shavkat qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

nkhshavkatovna039@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi O'zbekiston Respublikasida monetar siyosatning transmissiya mexanizmlari samaradorligi 2015–2024-yillar kesimida empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda VAR (Vector Autoregression) modeli qo'llanib, foiz stavkasi, pul massasi (M2), valyuta kursi, YalIM o'sishi va inflyatsiya kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi dinamik o'zaro bog'liqlik baholandi. Olingan natijalar pul massasi va valyuta kursi kanallarining inflyatsiyaga eng kuchli ta'sir ko'rsatayotganini, foiz stavkasi kanalining esa nisbatan sust va kechikkan mexanizm sifatida shakllanayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, kutilmalar kanalining ahamiyati oshib borayotgani, Markaziy bankning kommunikatsion siyosati iqtisodiy agentlar xulqiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani aniqlangan. Tadqiqot natijalari inflyatsion targetlash tizimini to'liq joriy etish jarayonida monetar siyosat instrumentlarini takomillashtirish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: monetar siyosat, transmissiya mexanizmi, VAR modeli, inflyatsiya, pul massasi, foiz stavkasi, valyuta kursi.

Abstract. This thesis provides an empirical analysis of the effectiveness of monetary policy transmission mechanisms in the Republic of Uzbekistan for the period 2015–2024. The study employs a VAR (Vector Autoregression) model to assess the dynamic interrelationships among key macroeconomic indicators, including the interest rate, money supply (M2), exchange rate, GDP growth, and inflation. The results indicate that the money supply and exchange rate channels exert the strongest influence on inflation, while the interest rate channel functions as a relatively weak and delayed mechanism. The analysis also reveals the growing importance of the expectations channel and highlights the significant impact of the Central Bank's communication policy on the behavior of economic agents. The findings justify the need to enhance monetary policy instruments during the full implementation of the inflation-targeting framework.

Keywords: monetary policy, transmission mechanism, VAR model, inflation, money supply, interest rate, exchange rate.

Аннотация. В данном тезисе эмпирически проанализирована эффективность механизмов трансмиссии монетарной политики в Республике Узбекистан в разрезе 2015–2024 годов. В исследовании применена модель VAR (Vector Autoregression) для оценки динамических взаимосвязей между такими макроэкономическими показателями, как процентная ставка, денежная масса (M2), валютный курс, рост ВВП и инфляция. Полученные результаты показывают, что каналы денежной массы и обменного курса оказывают наиболее сильное влияние на инфляцию, тогда как процентный канал формируется как относительно слабый и запаздывающий механизм. Кроме того, выявлено усиление роли канала ожиданий, а также значительное влияние коммуникационной политики Центрального банка на поведение экономических агентов. Результаты исследования подтверждают необходимость совершенствования инструментов монетарной политики в процессе полноценного внедрения режима инфляционного таргетирования.

Ключевые слова: монетарная политика, механизм трансмиссии, модель VAR, инфляция, денежная масса, процентная ставка, валютный курс.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda milliy moliyaviy bozorlarni liberallashtirish, pul-kredit siyosatini modernizatsiya qilish va inflyatsion targetlash tizimini joriy etish yo'lida muhim institutsional o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bunday sharoitda Markaziy bank tomonidan qabul qilinadigan monetar qarorlarning real sektor, moliyaviy bozorlar va narxlar dinamikasiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan transmissiya mexanizmlarining samaradorligi Markaziy bank siyosatining qanchalik izchil va ta'sirchan ekanligini, iqtisodiyotning tashqi va ichki shoklarga qarshi qay darajada barqaror turishini aniqlab beradi.



Monetar siyosatning foiz stavkasi, kredit, valyuta kursi hamda kutilmalar kabi asosiy kanallari rivojlangan davlatlarda bir-birini to'ldiruvchi mexanizm sifatida ishlasa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ularning ta'sir doirasi ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Xususan, moliya bozori chuqurligi, bank tizimining raqobatbardoshligi, fiskal siyosat intizomi va iqtisodiy agentlarning ishonch darajasi ushbu mexanizmlarning samaradorligini belgilaydi. O'zbekiston misolida esa, pul-kredit siyosati bozor mexanizmlariga o'tayotgan jarayonda ayrim kanallar sust, ayrimlari esa nisbatan faol ishlayotganini kuzatish mumkin.

Tezida 2020–2024-yillar bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, Markaziy bankning rasmiy statistikasi hamda empirik VAR modeli natijalari asosida O'zbekiston monetar siyosatining o'tish mexanizmlari baholanadi. Ushbu yondashuv Markaziy bank siyosatining hozirgi holatini aniqlash, kelgusidagi islohotlar uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Frederic S. Mishkin (2007) o'zining mashhur "Monetary Policy Strategy" asarida monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'siri bir vaqtning o'zida bir nechta kanallar orqali amalga oshishini ilmiy asoslab beradi. U foiz stavkasi, kredit bozori, valyuta kursi, aktivlar narxi va kutilmalar kanalini monetar siyosatning eng kuchli mexanizmlari sifatida ko'rsatadi. Mishkinning fikricha, markaziy bankning mustaqilligi va kommunikatsion siyosati kuchli bo'lmagan davlatlarda kutilmalar kanali juda sekin shakllanadi, bu esa inflyatsion targetlash tizimining samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradi. Ushbu yondashuv O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, milliy iqtisodiyotda aynan kutilmalar va foiz stavkasi kanallarining to'liq shakllanmaganligi amaliy kuzatishlarda ko'rinadi.

Ben Bernanke va Mark Gertler (1995) kredit kanali bo'yicha ilgari surgan ilmiy nazariyasida Markaziy bank qarorlari real sektorga qanday o'tishini tushuntiradi. Ularning fikricha, kredit bozori rivojlanmagan davlatlarda kredit kanali foiz stavkasidan ham kuchliroq ta'sirga ega bo'lishi mumkin, chunki iqtisodiyotning katta qismi bank kreditlariga tayanadi. Bu nazariya O'zbekiston sharoitida ayniqsa muhim, chunki milliy bank tizimida kreditlarning asosiy qismi davlat ishtirokidagi banklar ulushiga to'g'ri keladi va bu bozor mexanizmlarining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

A. Vahobov (2018) o'z ilmiy izlanishlarida Markaziy bankning foiz siyosati, qayta moliyalash stavkasi va kreditlash hajmlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. U O'zbekistonda foiz stavkalari kanalining sust ishlashining asosiy sababi banklararo bozorning yetarli rivojlanmaganligi ekanini ta'kidlaydi. Vahobovga ko'ra, Markaziy bank asosiy stavkasini o'zgartirganda tijorat banklarining kredit foizlari juda kechikib moslashadi, bu esa iqtisodiy siyosatning real sektor darajasida ta'sirini cheklaydi.

N. Saidova (2021) esa inflyatsion targetlash sharoitida fiskal-monetar siyosat uyg'unligining ahamiyatini o'rganib, inflyatsiya jarayonlarining barqarorlashuvi davlat byudjeti intizomi bilan bevosita bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Uning fikricha, yuqori byudjet defitsiti Markaziy bankning monetar instrumentlarini zaiflashtiradi, natijada inflyatsion kutilmalar barqarorlashmaydi. Ushbu yondashuv O'zbekistonning hozirgi bosqichidagi iqtisodiy siyosatga to'liq mos tushadi, chunki inflyatsiya jarayonlari ko'p hollarda fiskal bosimlar bilan bog'liq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Monetar siyosatning nazariy asoslari va transmissiya mexanizmlari bo'yicha yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, pul-kredit siyosati iqtisodiyotga turli kanallar orqali bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq ushbu ta'sirlarning miqdoriy darajasini aniqlash, ularning qanchalik kuchli yoki kechikkan holda namoyon bo'lishini baholash uchun faqat nazariy yondashuv yetarli emas. Shu sababli, empirik modellashtirish jarayoni ya'ni iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi real statistik bog'liqliklarni matematik shaklda aniqlash dissertatsiyaning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Empirik modellashtirish nafaqat Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan siyosat chora-tadbirlari samaradorligini aniqlash, balki ularning iqtisodiyotdagi qayta ta'sir mexanizmlarini ham tahlil qilish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, ushbu tahlil Markaziy bank qarorlarining inflyatsiya, pul massasi, valyuta kursi va yalpi ichki mahsulotga qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniq raqamlar bilan isbotlashga xizmat qiladi.

Shu maqsadda, ushbu bobda VAR (Vector Autoregression) modeli asosida O'zbekiston iqtisodiyotida monetar siyosatning asosiy instrumentlari va ularning inflyatsion jarayonlarga ta'siri empirik jihatdan o'rganiladi. Mazkur model orqali foiz stavkasi, pul massasi, valyuta kursi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Bundan tashqari, model natijalari yordamida pul-kredit siyosati o'zgarishlarining inflyatsiyaga ta'siri vaqt o'tishi bilan qanday dinamikada shakllanishi aniqlanadi.

Mazkur tahlil natijalari asosida Markaziy bank siyosatining hozirgi holati va istiqboldagi yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqiladi. Bu esa, o'z navbatida, inflyatsion targetlash tizimining

samarali ishlashini ta'minlash hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun zarur amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Empirik tahlil O'zbekiston iqtisodiyotida monetar siyosatning asosiy instrumentlari va inflyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratildi. Ushbu maqsadda VAR (Vector Autoregression) modeli tanlandi, chunki u iqtisodiy tizimdagi o'zgaruvchilar o'rtasidagi vaqtli ta'sirni aniqlashda eng samarali metodlardan biridir. Tadqiqotda 2015–2024 yillar uchun yillik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika qo'mitasi va Jahon banki ma'lumotlar bazasidan olindi. Quyidagi jadvalda modellashirishda qo'llanilgan asosiy o'zgaruvchilar, ularning belgilanishi, o'lchov birligi va manbalari keltirilgan.

1-jadval. VAR modelida qo'llanilgan asosiy o'zgaruvchilar

№	O'zgaruvchi nomi	Belgilanishi	O'lchov birligi	Ma'lumot manbasi
1	Inflyatsiya darajasi	INF	foizda (%)	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (CBU, 2024)
2	Pul massasi (M2)	M2	trln so'm	CBU, 2024
3	Qayta moliyalash stavkasi	IR	foizda (%)	CBU, 2024
4	Valyuta kursi (so'm/USD)	EXC	so'mda	CBU, 2024
5	YalM o'sish sur'ati	GDP	foizda (%)	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2024)

Manba: muallif tomonidan Markaziy bank va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Modelning matematik ko'rinishi

VAR modelining umumiy matematik shakli quyidagicha ifodalanadi:

$$Y_t = A_0 + A_1 Y_{t-1} + A_2 Y_{t-2} + \dots + A_p Y_{t-p} + \epsilon_t$$

Bu yerda:

- (Y_t) — iqtisodiy o'zgaruvchilar vektori (INF, IR, M2, EXC, GDP),
- (A_i) — o'tgan davrlarning ta'sirini ifodalovchi koeffitsientlar,
- (ϵ_t) — modelning tasodifiy shok (zarba) komponenti.

Modelning afzalligi shundaki, u har bir o'zgaruvchining o'tgan davrlardagi o'zgarishlar orqali boshqa o'zgaruvchilarga qanday ta'sir qilganini baholash imkonini beradi.

Model natijalari: var modelining empirik natijalari O'zbekiston iqtisodiyotida Markaziy bankning asosiy instrumentlari foiz stavkasi, pul massasi va valyuta kursi inflyatsiya jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Natijalar quyidagi jadvalda umimlashtirilgan.

2-jadval. VAR modelining natijalari

Mustaqil o'zgaruvchi	Koeffitsient	T-statistika	Ehtimollik (p-value)	Ta'sir yo'nalishi
IR → INF	0.48	2.74	0.009	Ijobiy (kechikkan)
M2 → INF	0.65	3.11	0.004	Ijobiy
EXC → INF	0.38	2.09	0.021	Ijobiy
GDP → INF	-0.22	-1.98	0.047	Salbiy
IR → GDP	-0.41	-2.61	0.012	Salbiy

Manba: muallif tomonidan Stata dasturida hisoblangan (CBU ma'lumotlari asosida).

Ushbu natijalarga ko'ra, foiz stavkasi va pul massasi inflyatsiya o'zgarishlariga eng sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Foiz stavkasidagi oshish iqtisodiyotda talabni qisqartiradi va inflyatsiyani kamaytiradi, biroq bu ta'sir 2–3 choraklik kechikish bilan yuzaga chiqadi. Pul massasining o'sishi esa qisqa muddatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, ammo uzoq muddatda inflyatsion bosimni kuchaytiradi. Valyuta kursining pasayishi import xarajatlari orqali narxlar darajasini oshiradi, YalM o'sishi esa aksincha, inflyatsion bosimni qisman pasaytiradi. Bu holat iqtisodiy faollik va narx barqarorligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Foiz stavkasi inflyatsiyani nazorat qilishda asosiy instrument bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida bu kanalning to'liq ishlashi hali ham cheklangan. Foiz stavkasining oshirilishi iqtisodiy faollikni qisqartiradi va inflyatsiyani kamaytiradi, biroq bu ta'sir 2–3 choraklik kechikish bilan yuzaga chiqadi. Bunga sabab sifatida tijorat banklarining resurs bazasidagi yuqori likvidlik, kreditlar tuzilmasida davlat kafolatlari ulushining yuqoriligi hamda foiz stavkalarining bozor talablariga to'liq moslashmaganligi ko'rsatiladi (CBU, 2023). Shu bois, Markaziy bank tomonidan foiz siyosatini yanada qat'iyroq va prognozga asoslangan shaklda yuritish zarur.



Pul massasi o'zgarishlari iqtisodiyotdagi umumiy talab darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. VAR modeli natijalariga ko'ra, M2 agregatining 1% ga ortishi o'rtacha 0,6% darajada inflyatsion o'sishga olib keladi. Bu, o'z navbatida, pul taklifining haddan tashqari kengayishi narxlar bosimini kuchaytirishini bildiradi. Shu sababli, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarini kengaytirish, likvidlikni qisqa muddatli instrumentlar orqali boshqarish va fiskal siyosat bilan muvofiqlikni kuchaytirish zarur (Abdurahmonov, 2022).

Valyuta kursi ham inflyatsiya jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. So'mning qadrsizlanishi import narxlarining oshishiga olib keladi va bu orqali ichki bozor narxlariga bosim qiladi. Model natijalariga ko'ra, valyuta kursidagi 1% lik o'zgarish inflyatsiyada o'rtacha 0,38% lik o'sishni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishi eksportni rag'batlantiradi va tashqi savdo balansini muvozanatlashtirishga yordam beradi. Bu jihatdan, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan valyuta liberallashtirish siyosati ijobiy natija bermoqda (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5177-son Farmoni, 2017).

VAR modelining umumiy xulosalariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida monetar siyosatning asosiy kanallari hali to'liq shakllanmagan, biroq ularning ta'sir kuchi yildan-yilga ortib bermoqda. Eng faol mexanizm sifatida valyuta kursi va pul massasi kanallari aniqlangan, foiz stavkasi esa asta-sekinlik bilan bozor sharoitlariga moslashmoqda. Shu bois, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, instrumentlararo muvozanatni saqlash va iqtisodiy sub'yektlarning kutilmalarini samarali boshqarish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inflyatsion targetlash tizimiga o'tish jarayonida iqtisodiy agentlarning ishonchini mustahkamlash, kommunikatsion siyosatni kuchaytirish va pul-kredit choralari fiskal siyosat bilan muvofiqlashtirish zarur. Shu yo'sinda Markaziy bankning mustaqil, shaffof va ilmiy asoslangan siyosati mamlakatda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylanadi.

O'tkazilgan nazariy va empirik tahlillar natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, u foiz stavkalari, pul massasi, valyuta kursi hamda iqtisodiy agentlar kutilmalari orqali uzatiladi. Biroq bu mexanizmlar samaradorligi asosan institutsional islohotlarning chuqurligiga, moliya bozorining rivojlanish darajasiga va Markaziy bankning siyosiy mustaqilligiga bog'liqdir.

VAR modeli natijalari shuni ko'rsatadiki, pul massasi va valyuta kursi kanallari hozirgi sharoitda eng faol ishlamoqda. Pul taklifining o'sishi qisqa muddatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, biroq uzoq muddatda inflyatsion bosimni kuchaytiradi. Valyuta kursining erkin shakllanishi esa iqtisodiyotning tashqi muvozanatini ta'minlashga yordam berayotgan bo'lsa-da, importga bog'liq tarmoqlarda narx barqarorligini zaiflashtiradi.

Foiz stavkasi kanalining ta'siri esa nisbatan sust, ammo barqaror shakllanmoqda. Bu esa banklararo likvidlik bozorining cheklanganligi, kredit resurslarining asosan yirik banklar orqali taqsimlanishi va foiz koridorining to'liq shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli, Markaziy bank tomonidan foiz siyosatini yanada erkinlashtirish, ochiq bozor operatsiyalarining hajmini kengaytirish va tijorat banklari likvidligini bozor mexanizmlari orqali boshqarish zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotdagi inflyatsion jarayonlar asosan pul taklifi, valyuta kursi va iqtisodiy kutilmalar omillari orqali shakllanadi. Bu esa pul-kredit siyosatini fiskal siyosat bilan uyg'un holda olib borish zarurligini taqozo etadi. Shu bilan birga, iqtisodiy agentlarning ishonchini mustahkamlash, Markaziy bank kommunikatsion siyosatini kuchaytirish va inflyatsion targetlash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish barqaror makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi Qonun (2020). O'RQ-637-son, 11-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5177-son Farmoni (2017). "Valyuta siyosatini liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4886-son Qarori (2020). "2021-2023 yillarda pul-kredit siyosatini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023-2024). "Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari" yillik hisobotlari.
5. Vahobov, A. (2018). O'zbekiston iqtisodiyotida pul-kredit siyosati mexanizmlari va ularning samaradorligi. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
6. Saidova, N. (2021). "Inflyatsion targetlash sharoitida fiskal va monetar siyosat uyg'unligi". Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 4(2), 33-41.
7. Zoyirov, Sh. (2020). "Tijorat banklarining likvidlik boshqaruvi va pul bozori rivoji". Moliyaviy tahlil jurnali, 3(1), 22-29.
8. Abdurahmonov, B. (2022). "Ochiq bozor operatsiyalarini rivojlantirishning monetar siyosatdagi roli". Bank ishi, 6(3), 15-24.
9. Xakimov, X. (2022). "Dollarlashuvning monetar siyosatga ta'siri: O'zbekiston tajribasi". Iqtisodiy tadqiqotlar, 7(4), 28-36.
10. Mishkin, F. S. (2007). Monetary Policy Strategy. Cambridge, MA: MIT Press.



11. Bernanke, B., & Gertler, M. (1995). "Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission". *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 27–48.
12. IMF (2023). *Monetary Policy and Inflation Outlook: Global Economic Report*. Washington: International Monetary Fund.
13. OECD (2022). *Inflation Dynamics in Emerging Markets*. Paris: OECD Publishing.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100